

**ABOUT ABU RAYHAN BERUNI'S WORK "KITAB AL-JAMAHIR FI-MA'RIFAT AL-JAWAHIR"**

Dilorom I. Salohiy

Doctor, Professor

Samarkand State Institute of Foreign Languages

dsalohiy@gmail.com

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: academician A.P. Kayumov, Qat, Khorasan, Abu Nasr ibn Ali Iraq, "ajad", "zukhruf", "ibriyz", "muruvva", stories, poetry, mineralogy.

Received: 08.05.26

Accepted: 09.05.26

Published: 10.05.26

Abstract: This article provides information on the work "Kitab al-Jamahir fi-Ma'rifat al-Jawahir" by Abu Rayhan Muhammad ibn Ahmad Beruni, one of the founders of early Eastern civilization, and details of its translation into Uzbek. Among the scholar's more than 150 works, the surviving "Jawahiro" contains scientific information on more than 30 precious stones and minerals. The work was translated into Russian and Uzbek by Arab scholars. The purpose of the article is to study the scientific value of the work and the features of its translation.

ABU RAYHON BERUNIYNING "KITAB AL-JAMAHIR FI-MA'RIFAT AL-JAWAHIR" ASARI HAQIDA

Dilorom I. Salohiy

Doktor, Professor

Samarqand davlat Chet tillar instituti

dsalohiy@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Akad. A.P. Qayomov, Kat, Xuroson, Abu Nasr ibn Ali Iroq, "ajad", "zuhruf", "ibriyz", "muruvva", hikoyatlar, she'riyat, minerologiya.

Annotatsiya: Ushbu maqola Sharqning ilk Tamadduni asoschilaridan bo'lmish qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniyning "Kitab al-jamahir fi-ma'rifat al-jawahir" asari haqidagi ma'lumotlar va uning o'zbek tiliga qilingan tarjimai tafsilotlariga bag'ishlanadi. Olimning 150 dan ortiq yaratgan asarlari qatorida bizgacha etib kelgan ushbu "Javohiro" asarida 30 dan ortiq

qimmatbaho toshlar va minerallar haqida ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan. Asar arabshunos olimlar tomonidan rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan. Maqolada asarning ilmiy qimmatini va tarjimasini xususiyatlarini o'rganish maqsad qilingan.

О ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ «КИТАБ АЛЬ-ДЖАМАХИР ФИ-МА'РИФАТ АЛЬ-ДЖАВАХИР»

Дилором И. Салохи

Доктор, профессор

Самаркандский государственный институт иностранных языков

dsalohiy@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: акад. А.П.Каюмов, Кат, Хорасан, Абу Наср ибн Али Ирак, «аджад», «зухруф», «ибрийз», «мурувва», рассказы, поэзия, минералогия.

Аннотация: Данная статья посвящена информации о работе Абу Райхана Мухаммада ибн Ахмада Беруни, одного из основателей ранней цивилизации Востока, «Китаб аль-джамахир фи-ма'рифат аль-джавахир», и подробностям её перевода на узбекский язык. Среди более чем 150 работ учёного дошедшая до нас работа «Джавахиrot» содержит научную информацию о более чем 30 драгоценных камнях и минералах. Работа была переведена на русский и узбекский языки арабскими учёными. Цель статьи — изучить научную ценность работы и особенности её перевода.

Kirish. Xorazmshohlar davlatchiligining X asrdagi poytaxti Kat shahri bo'lib, bu yerda qariyb uch asr davomida afrig'iylar sulolasi hukmronlik qilgan. Bugungi kunda dunyoga mash'hur qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy 913-m.yilda shu yerda dunyoga kelgan. Olimning birinchi ustozlari, xorazmshoh Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Iroqning amakivachchasi bo'lmish taniqli mutafakkir alloma Abu Nasr ibn Ali Iroq edi.

Muhammad ustozlari Abu Nasr ibn Iroq qo'lida matematika, astronomiya fanlaridan chuqur bilim oldi. U yana nabotot (botanika), jug'rofiya (geografiya), hikmat (fizika), tarix, tilshunoslik, adabiyot, vazn ilmi, falsafa va boshqa ilmlarni ham o'rgandi. U o'zining himoyachisi va ustozlari davlatining soyasida ilm tahsilida ko'p yutuqlarga erishdi va zamonasining taniqli olimlaridan biri bo'lib etishdi.

Al-Beruniyning “Kitab al-jamahir fi-ma’rifat al-javahir” asari o‘zbek tiliga “Qimmatbaho toshlarni tanimoq uchun (lozim) ma’lumotlar to‘plami” deb tarjima qilinadi. Fanda kitob nomi qisqartirilib “Javohirot” yoki “Minerologiya” deb ataladi.

Asarni 1963 yilda sovet arabshunos olimlaridan A.M.Belenitskiy arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan. Uni 2019 yilda akademik Azizxon Qayumov “Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi” nomi bilan arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi va nashr ettirdi.

Al-Beruniyning 150 dan ortiq yaratgan asarlari qatorida bizgacha etib kelgan “Javohirot” asarining o‘rni alohida. Bu asarda 30 dan ortiq qimmatbaho toshlar va minerallarning nomlari, ularning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlash, eritib sinash, konlardagi mavjud deyarli hamma qimmatbaho toshlar va turli ma’danlar, ularning qotishmalari haqida ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Asarning asosiy qimmatini minerallar og‘irligining aniqlab chiqilishidir. Al-Beruniygacha bunday ish antik davrda ham, keyinchalik ham amalga oshirilmagan edi, olim esa Arximed qonuniga asoslangan holda bir qancha minerallar og‘irligini aniqlaydi. Asar mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, Al-Beruniy minerallar og‘irligini nihoyatda aniq o‘lchagan, hattoki hozirgi zamondagi o‘ta sezgir texnologiya jalb etilganida ham olim o‘lchovining farqi yuzdan biriga ham teng kelmaydi.

“Javohirot” garchi qimmatbaho toshlar va metallar to‘g‘risida ma’lumot berishga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, u falsafiy, tarbiyaviy va adabiy materiallarga juda boy. Bu kitobda turli hayotiy tajribalarga asoslangan falsafiy-didaktik xulosalar bayon etilgan. Ularni olim “tarviha” deb ataydi.

Asarning dastlabki qismi minerallarga, ikkinchi qismi ma’danlarga bag‘ishlangan. Qimmatbaho toshlar, javohirlar (minerallar), filizzot (metallar) haqida Al-Beruniy yaratgan ushbu nazariy-amaliy asarning qadr-qimmatini beqiyosdir. Olim o‘zigacha kelgan manbalardagi chalkashliklar va xato fikrlarni tajribalari asosida inkor etib, soha bo‘yicha zamonasining eng ilg‘or fikrli olimi ekanligini namoyon etgan.

Asar badiiy adabiyot va adabga oid hamda turli xalqlarning minerallar va metallar bilan bog‘liq materiallarga oid materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu haqda akademik I.Yu.Krachkovskiy shunday deydi: “Al-Beruniy ko‘p yillik maxsus izlanishlarini faqat ilmiygina emas, balki badiiy adabiyot, faqat original arab adabiyotigina emas, boshqa tillardan o‘tgan adabiyot namunalari bilan ham boyitdi”. Asarda Qur’oni karimdan keltirilgan parchalar olimning islom dinining ushbu muqaddas manbasini chuqur bilganligidan dalolat beradi.

Al-Beruniy o‘zining “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Geodeziya” kabi asarlarida turli xalqlarga oid afsona va miflarni keltirgan bo‘lsa, “Javohirot” va “Saydana” da arab tilida yaratilgan she’rlardan ko‘plab parchalar keltiradi. Ular qadim davrlardan boshlab

olimning o'zi yashagan davrgacha bo'lgan shoirlar asarlaridan olingan parchalardir. "Javohirot" da olim sakson to'rt shoir nomi va ularning asarlaridan parchalar keltirgan. Ba'zi o'rinlarda Eron, Xorazm, Buxoro, Xuroson shoirlari she'rlaridan ham foydalangan. Ko'pincha Al-Beruniy she'rlarga izoh beradi, ba'zan she'rlarni tanqidiy tahlil ham qiladi. Bu holat Al-Beruniyning adabiyot sohasidagi bilimi qanchalik keng ekanini ko'rsatadi.

Minerallar va ma'danlar qaerda bo'lishi mumkinligi haqidagi Al-Beruniy bergan ma'lumotlar geologiya, mineralogiya, metallurgiya tarxi va hozirgi izlanishlar uchun ham muhimdir. Bu asar konlarni, ayniqsa, O'rta Osiyo er osti boyliklarini o'rganish uchun muhim manba sifatida o'z qimmatini saqlamoqda.

Inson talablari haqida so'z yuritir ekan, olim, jumladan, shunday yozadi: "Alloh, Uning nomi sharafli bo'lsin, odamlarga tanlov huquqi bermoq yo'lida yig'ilmoq, birlashmoq va turar joylar tuzmoq imkoniyatini bergan. Ularning tilaklari va kuchlarida farqlarni yaratgan. Buni ularning biron-bir eng yuksak va go'zal narsani tanlashda bir-birlariga duch kelmasliklari uchun qilgan. Bu hol undan (yuksak va go'zal narsadan) quyi narsaning yo'qolmasligi, odamlar o'rtasidagi umumiy baravarlik ularning hammasini halokatga keltirmasligi uchun qilingan". Shu mavzuda so'zlar ekan, olim qiziq bir hikoyat ham keltiradi: Bir badaviy ziyoratchilarga sotish uchun bir kiyikni tutib keltirgan. Ziyoratchilar uni sotib olganlar. Ular badaviydan kiyikni qanday qilib tutganini so'raganlar. U quvib borib tutdim, degan. Ular ishonmaganlar. Badaviy "agar yana bir bor bahosini to'lasangizlar, men qanday qilib tutganimni ko'rsataman", degan. Ular rozi bo'lishgan, kiyik qo'yib yuborilgan. Kiyik bulardan uzoqlashgach, badaviy uni quvib borib tutgan. Kiyikni topshirib yana bir bahosini olgan. Ziyoratchilar o't yoqib, kiyikning go'shtini pishirganlar va atrofi xaltaga o'xshatib tikilib, ip o'tkazilgan dasturxon ustiga qo'yanlar. Shunda badaviy sekin xaltaning ipidan tortib olib qochgan va nariroqqa borib: "bu kiyik tirikligida mendan ikki marta qochib qutulolmagan edi, endi pishirilib tayyor bo'lganda mendan qutula olarmidi? Sizlar badavlat kishilarsiz, xudo davlatingizni yana ham ziyoda qilsin. Mening oilam esa och o'ltiribti. Buni sizlardan sovg'a qilib olib boraman", deb o'z tilida qo'shiq aytib, ziyoratchilarni masxara qila-qila jo'nab ketgan.

Ehtiyojlarning ortishi, – deb yozadi Al-Beruniy, – ularning turli vaqtlarda kelib chiqishi, yana birortaning vaqti soati bilan boshqada bor narsaga ehtiyoji bo'lmasligi – bular hammasi odamlarda qiymatni baholash vositasini, ya'ni bir o'lchovni izlamoqqa olib keldi. Chunki har bir holatda biror narsaning o'z qiymatiga mos keluvchi barobar qiymatini o'rnatmoq qiyin edi. Bunday o'lchov uchun odamlar o'z ko'rinishi, yarqiroqligi bilan nazarni quvontiradigan hamda kam uchraydigan va uzoq saqlanadigan narsani – oltinni tanladilar. Uning o'lchovi va shakli o'zgarib turishi mumkin, ammo moddiy qiymati, ashyoviy asosi va mohiyati aslo o'zgarmaydi. Oltin va kumushga nisbatan Allohning yo'li shunday: oltin va kumushni odam qo'lma-qo'l

aylanmoqqa qo‘ysin; ulardan o‘z foydasiga doir ishlarda baho sifatida foydalansin. Lekin, agar ularni xazina qilib yig‘a berilsa, odamlarni ulardan foydalanmoqlari to‘xtaydi, ularga nisbatan Alloh taoloning buyrug‘i va irodasi buziladi, uning marhamatiga putur etadi. Chunki bunday holda oltin va kumushlar o‘zlarining er ostidagi dastlabki holatlariga qaytarilgandek bo‘ladilar. Bu esa homilaning ona qorniga qaytarib solib qo‘yilganidek.

Oltin to‘g‘risidagi bobda olim uning turli tillarda turlicha atalishini keltiradi. Rumiylarda “harusun” (xrizos), suriyaliklarda “dahaba”, hindlarda “suvarn”, turklarda “altun”, forslarda “zar”, arablarda “zahab” va “nudir”, toza oltin esa “iqyon” deb yuritilgan. Ishlovdan oldingi holatdagi oltinni “tibr” deb ataganlar. Yana oltinni “ajad” deb ham yuritganlar. Uning boshqa bir oti “zuhruf” dir. Eng yaxshi sifatli oltin “luqt” deyilgan. U katta bo‘lakdan bo‘lib, “rikoz” – yombi ham deyiladi. U tozaligi tufayli “ibriyz” deb ham nomlanadi. Ibriyz o‘z salmog‘ini hamisha saqlaydi, kuydirilganda ozaymaydi.

“Javohirot” asarining qimmatbaho toshlardan yoqutga bag‘ishlangan qismida Al-Beruniy keltirilgan ushbu hikoyat g‘oyat qiziqarli, uning matnida arabcha so‘z, ibora va atamalar ko‘plab uchraydi: Dengizchilar tushgan kema qattiq shamol tufayli Jabal ul-ahzar degan joyga kelib berkingan. Qirg‘oqda sayr uchun qulay joy bor ekan. Dengizchilar sayr qilib yurib, o‘rmon ichidagi ko‘l bo‘yida yurgan bir mo‘ysafidga duch kelganlar. Unga yong‘oq, bodam, finik kabi mevalar hadya qilganlar. Chol uyiga kirib, xurmo daraxti barglaridan qilingan bir hamyon olib chiqqan. Undan bir misqol kelgudek yoqutni dengizchilar boshlig‘iga sovg‘a qilgan. Boshliq odam yuborib, kemadan yana meva, kiyim, tuz va hokazo keltirib cholga taqdim etgan. Chol ham yana bir toshni chiqarib, tortiq qilgan. Bu toshning salmog‘i olti misqol kelgudek edi. Boshliq “bu narsalarni qanday topding”, deb so‘raganda, chol uni bir ariq bo‘yiga boshlab kelgan va bu toshlarni shu ariqqa yomg‘ir suvi keltiradi, deb javob bergan. Chol ularni yig‘ish bilan shug‘ullanmas ekan, toshlar cholga kerak emas, u tarki dunyo qilgan ekan. Ammo dengizchilarning qaytishiga ancha tosh yig‘ib qo‘yishni va‘da qilgan. Qaytishda esa dengizchilarning u erga kirishga imkoniyatlari bo‘lmagan.

Al-Beruniy bu hikoyadan ilmiy xulosa chiqaradi. Uning fikricha, ariqning boshi yoqut konlariga ega tog‘larda bo‘lsa kerak.

Al-Beruniy ba‘zi hukmdorlarning qimmatbaho toshlarga o‘chligini qoralaydi, shuningdek ulardan bezaklar sifatida foydalanishga ham mutlaqo qarshi bo‘lgan.

Olimning hikoya qilishicha, Xalifa Umar ibn Abdulaziz o‘g‘li Abdullohning bir ming dirhamga uzuk uchun qimmatbaho tosh sotib olganini eshitgach, unga xat yozib buyurganki, o‘g‘li darhol bu uzukni sotsin, tushgan pulga esa ming och odam uchun ozuqa bersin, o‘ziga kumushdan uzuk yasatib, muhr qildirsin. “Maqtoqli ishlarning eng yuqorisi muruvvatdir. Bu ishning o‘zi esa – tozalik va tartib. Kimki shularga o‘z ixtiyori bilan rioya qilsa, u mo‘l-ko‘llikka erishmoqqa

qobildir. Kimki bulardan chetlansa, uning yelkasi qashshoqlik tufayli egik”, - deb yozadi Al-Beruniy.

Natijalar. O‘z davri olimlaridan birining aytishicha, Al-Beruniyning bu kitobi inson ko‘ngli va hayotini o‘sha javohirlar kabi aziz va pok bo‘lmoqqa chorlaydi, insoniy fazilatlarining qimmatbaho boylik ekanidan ta‘lim beradi.

Al-Beruniy asarida keltirgan ma‘lumotlarni o‘zi tajribadan o‘tkazib, sinab, keyin xulosa chiqarganligini qayd etadi. U har bir javohir va har turli ma‘danlar haqida o‘zidan avval kelgan olimlar asarlaridagi fikrlarni mufassal keltiradi, so‘ng ularni tahlil qiladi va tajribadan o‘tkazadi. Masalan, qimmatbaho toshlardan bo‘lmish zumrad haqidagi qismda olim shunday yozadi: “Abu Nasr al-Utbiy o‘zining bir asarida deydi: Har bir buyum Allohning irodasi bilan alohida kuchga va xususiyatga ega. Zumraddan jinning ko‘zlari oqadi, yoqut ilon zahriga davo, qahrabo erdagi somonni o‘z kuchi bilan tortadi. Sut va unda yog‘ bo‘lgani sababli undan tayyorlangan shirchoy sotuvchini o‘ziga jalb etadi.

Hikoyachilarning bir ovozdanda aytishlariga qaramay, tajribada bu isbotlanmadi. Men zumradli munchoqni ilonga o‘radim, zumrad donalarini ilonli savat tagiga sepdim. Zumradni ipga bog‘lab, ilonni ko‘z oldida silkitdim, bu narsani to‘qqiz oy sovuq demay, issiq demay amalga oshirdim. Bu ishim hech qanday natija bermadi”.

Yana bir xulosasida olim: - Ilmiy kitoblarda she‘riyatdan o‘rinli foydalanish juda zarur, - deb yozadi, - she‘rlar maqsadni tushuntish va ma‘noni xotirda saqlab qolishga yordam qiladilar. Qadimiy arablar sahrolarda yashagan vaqtlarida yozuvlari bo‘lmagan. Biror narsani abadiylashtirmoqchi bo‘lsalar, xotirda saqlashga va tildan tilga o‘tkazishga uringanlar. She‘riyat ular uchun bilimlar majmuasi bo‘lgan. She‘r orqali ular kurash kunlari, ota-bobolar tarixini yodda saqlaganlar.

Olim asarini olamlarni – butun borliqni hikmati bilan yaratgan Yagona va Yolg‘iz Allohga hamd hamda insonlarning eng donishmandi va marhamatlisi Muhammad alayhissalomga maqtovlar bilan yakunlaydi.

Xulosa. Abu Rayhon Beruniy asarlarining o‘z o‘quvchilari – savodli va o‘qimishli kishilar nihoyatda qadrlaganlar. G‘aznagina emas, Xuroson, Movarounnahr, Eronzamin, Xorazm, Iroq va boshqa ellarda ham Al-Beruniy yozgan kitoblar odamlarning qo‘llaridan tushmas, ilmiy anjumanlarda bosh mavzu bo‘lar, kishilar bu kitoblarni har erda muhabbat va ixlos bilan o‘qir, ulardan ta‘lim olar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. (2017). Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi. Kitob al-jamohir fi ma‘rifat al-javohir. Mineralogiya. Tarjimon akademik Azizxon Qayumov. - Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” – 578 b. (o‘zbek tilida)

2. Abu Rayhon Beruniy. (1993). Feruza. – Toshkent: Abdulla Qodiriy n-dagi XMN – 78 b. (o‘zbek tilida)
3. Aziz Qayumov. (1974). Beruniy va adabiyot. – Toshkent: G‘afur G‘ulom n-dagi ASN – 264 b. (o‘zbek tilida)
4. Aziz Qayumov. (1987). Abu Rayhon Beruniy. Abu Ali ibn Sino. AKH. - Toshkent: “Yosh gvardiya” – 164 b. (o‘zbek tilida)
5. Aziz Qayumov. (2010). Asarlar. X jildlik. 1X-jild. – Toshkent: “MUMTOZ SOZ”. (o‘zbek tilida)
6. Мец Адам. (1966). Мусульманский Ренессанс. – Москва: Наука – 187 с. (на русском языке).